


**EKOLOGIYA IFLOSLANISHINI INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI****Axunjonova Hakima Abdumannabovna, Azimova Mavluda Umidjon qizi****“CAMU” Xalqaro Tibbiyot Universiteti****“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrası assistenti,****Stomatologiya yo‘nalishi 1023- guruh talabasi**

Annotasiya: Hozirda, ekologiyaning o‘zgarishi, radiatsiya ta’sirida yuzasidan aholi qatlamida juda ham ko‘plab hayotida va irsiy kasalliklarni keng avj olishiga sabab bo‘lmoqda . Bularni birinchi navbatda, profilaktika qilgan har taraflama afzal hisoblanadi. Radiatsiya to‘lqinlarini zararsiz miqdorda qo‘llanilishini nazorat olish ham aholini kasallikdan saqlaydi. Ekologiyani buzilishining inson salomatligiga ko‘rsatadigan tasiri, bugungi kundagi olib borilayotgan ishlar, rejalar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Irsiy, profilaktika, radiatsiya, patologiya, antropogen, ekotizim, ekologik.

Inson tabiat bilan chambarchas bog‘liqdir, shuning uchun hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo‘lgan taftini his qilamiz. O‘zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo‘lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ana shunday go‘zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Bunga kimlar sababchi? Tabiatning ifloslanishini oldini olish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ming afsuski inson tabiatga misli ko‘rilmagan miqdorda ta’sir ko‘rsatadi. Insoniyat uni o‘rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi yoki aksi bo‘ladi, uni o‘zi istaklariga moslashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta ta’lofatlarga olib keladi.

Atrof muhitga antropogen ta’sir natijasida hosil bo‘lgan ta’sirlar yana qayta o‘ziga patologiya bo‘lib qaytmoqda. Hozirgi zamon bilamizki, texnologiyalar rivojlanib, insonlar kosmoslarga o‘z izlanishlarini yo‘lga qo‘ymoqda, zavod fabrikalar o‘z ish faoliyati davomida hosil bo‘lgan chiqindi mahsulotlari yerning ozon qatlamini yemirmoqda. Buning natijasida, parnik muhit rivojlanmoqda, ularning oqibatida yer sayyorasi kundan kunga isiy bormoqda, eng ayanchlisi ultrabinafsha nurlar yerning yuzasida haddan tashqari ushlanib qolayotgani demakdir. Tabiiy omillardan tashqari, texnik radiatsiya avariylar oqibatida atrof muhit va insonlarda irsiy kasalliklar va erta o‘lim holatlarini keltirib chiqarmoqda. Radiatsiyaviy avariya, uskuna nosozligi,





xodimlarning xatti-harakatlari, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan normalardan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi. Radioaktivlik miqdori chegaralangan me'yordan oshmasligi va inson hayoti uchun xavfli vaziyatni vujudga keltirmasligi lozim. Radiatsiya holati, belgilangan xavfsizlik me'yorlaridan yuqori bo'lgan hamda radioaktiv mahsulotlar va ionlashtiruvchi nurlarning paydo bo'lish(chiqishi)i favqulodda vaziyatga olib keladi.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida halokatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan radiatsiyaviy xavfli inshootlarning turlari ko'p. Ular atom elektr stansiyalari, yadro yoqilg'isi ishlab chiqaruvchi korxonalar, yadro reaktori mavjud bo'lgan ilmiy-tadqiqot institutlari. Insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'plab miqdorda tabiiy resurslardan foydalanadi. Aksariyat hollarda ushbu tabiiy resurslarni saqlashga, atrof-muhit tozaligiga e'tibor beradi va shu bilan ekologik va iqtisodiy masalalarni hal qilishda optimal nisbatni topishga harakat qiladi. Jahon iqtisodiyoti tarmoqlarining zamonaviy rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz, biz ekologik ustuvorliklarga nisbatan iqtisodiy ustuvorliklarning uzoq vaqt hukmronligini kuzatmoqdamiz, bu esa o'z navbatida sayyoramiz florasi va faunasi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Ushbu holatlar, tushinarsiz (ijobiy yoki salbiy) bo'lganidek, atrof-muhitni muhofaza qilishning turli xil omillarini atrof-muhitga antropogen ta'sirini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni yaratishni jadallashtirish uchun ijobiy shart-sharoitlarni yaratmoqda. Ushbu faoliyatning iqtisodiy samaradorligi atrof-muhit ifloslanishining oldini olish orqali ifoda etiladi. Shahar infratuzilmasi qurilishi va ishlatilishi davrida shahar aholisi va atrof muhit(o'simlik va hayvonot dunyosiga, tabiiy landshaftlar)ga, madaniy va tarixiy yodgorliklariga katta zarar yetkazilishi mumkin. Shuning uchun ham yetkazilgan zararlarning o'rnini qanday qoplanishini hisoblash kerak. Olingan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy natijalar, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari samaradorligining o'lchovi bo'ladi. Erishilgan ekologik natija, atrof-muhitni yaxshilashda, ya'ni, ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi, radiatsiya, shovqin darajasi, shuningdek boshqa har qanday noxush hodisalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish kabi ko'rsatkichlarning pasayishida namoyon bo'ladi.





Ekotizimlar boshqaruvida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda shaxsiy iste'mol sohasidagi yo'qotishlarni kamaytirish yoki ularning to'liq yoki qisman yo'q qilish maqsadida tabiiy va mehnat resurslari hamda materiallardan oqilona foydalanish iqtisodiy natijalarning namoyon bo'lishi orqali amalga oshiriladi. Agar biz, jadallik bilan o'sayotgan shahar aholisini mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, odamlarning umr ko'rish davomiyligini va mehnatga yaroqli aholining faol faoliyati davrini oshirish, kasalliklarni kamaytirish, tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklarni bust-butunligicha saqlash kabi tadbirlarni to'raligicha amalga oshira olsak, ijtimoiy natijalarning ijobiy namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Olib borilayotgan har qanday ekologik va iqtisodiy tadqiqotlar davomidagi asosiy vazifa, ekologik chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini hisobga olishdir, bu esa o'z navbatida kamdan-kam hollarda ma'lum bir ketma-ketlikda atrof-muhit natijalarini tez ijobiy bo'lishiga va shuningdek, kerakli darajada ekologik sifatga erishish imkonini beradi. Ekologik sifatga erishish uchun qo'llaniladigan usullar va ushbu usullarni konkretlashtirish, ulardan foydalanish eng katta iqtisodiy foyda keltiradigan rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Avval ta'kidlab o'tilganidek, butun iqtisodiy samaradorlikning ajralmas qismi bu jamiyatning ekologik faoliyati samaradorligidir. Jamiyat manfaatlari har doim ham ishlab chiqarish manfaatlari bilan iqtisodiy manfaatlarga to'g'ri kelishi mumkin emas. Tabiiy boyliklardan nooqilona (isrofgarchilikka yo'l qo'ib) foydalanish, turli tashkilotlar va korxonalarining atrof-muhit faoliyatini tahlil qilishda ularning ushbu faoliyat turiga bo'lgan qiziqishlarini juda past darajada ekanligi va ishlab chiqilgan qonunlarni ko'p hollarda chetlab o'tilishi, umuman olganda boshqaruv mexanizmini to'liq ishlab chiqmaganligini ta'kidlab o'tmaslik mumkin emas. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga sarflangan sarmoyalar miqdori, atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan harajatlar miqdoridan sezilarli darajada kam. Ko'p hollarda ekotizimlar boshqaruvi mantiqsiz. Ba'zida bu boshqaruv natijasi ekotizimga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin. Afsuski, tabiatdan va uning boyliklaridan bunday "mohirona" foydalanish nafaqat mamlakatimiz uchun, bu butun taraqqiyparvar insoniyat uchun o'ta jiddiy muammo hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, avvalambor, kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalar yordamida resurslardan





oqilona foydalanishni ta'minlash, yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun asos bo'lishi va shu bilan birga global ekologik falokatlarining oldini olishga umid uyg'otishi kerak. Ekotizimlarni boshqarish orqali, ekologik majburiyatlarni bajarish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kuchli, shaffof ravishda tatbiq etiladigan va bajariladigan mukammal ishlab chiqilgan siyosat hamda qonunlar talab etiladi.

Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahonbo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliarddan ortiq buyumlartayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltingugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil vaboshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir. Xavfsiz va sog'lom jamiyat faqat atrof-muhitni mas'uliyat bilan boshqarganimizda bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo'lga qo'yilishi kerak. Zero, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo'yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni, suvni, oziq - ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinadi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni oz musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bolamiz.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Prezident Sh.Mirziyoyev: “Toshkent-Siti” markazi yurtimizda qurilish va arxitektura sohasida taraqqiyotning yangi davri boshlanganini ko‘rsatadi. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-toshkent-siti-markazi-yurtimizda-qurilish-va-arxitektura-sohasida-taraq>

2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining Qonuni 41-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda 714-II-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2004-y., 51-son, 514-modda.

3. O‘zbekiston respublikasining shaharsozlik kodeksi. 1-bob. Umumiy qoidalar. 8-modda. Yuridik va jismoniy shaxslarning, jamiyat va davlatning shaharsozlik sohasidagi manfaatlarini. <https://lex.uz/docs/-5307951>.

4. O‘zbekiston respublikasining shaharsozlik kodeksi. 1-bob. Umumiy qoidalar. 9-modda. Fuqarolarining qulay hayot faoliyati muhitiga bo‘lgan huquqi. <https://lex.uz/docs/-5307951>

5. Ra'no Parpiyevna Rustamova//EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI// Academic Research in Educational Sciences 2022

